

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ  
ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА  
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**



**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ  
В XXI ВЕКЕ И ЗНАЧЕНИЕ В НИХ  
ИННОВАЦИЙ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ  
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ  
ВА УЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Биология ва уни ўқитиш методикаси кафедраси профессори Хударган  
Мавлонов таваллудининг 75 йиллигига бағишланган**

**Республика илмий анжумани материаллари  
(2021 йил 15 апрель)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ И  
ЗНАЧЕНИЕ В НИХ ИННОВАЦИЙ  
МАТЕРИАЛЫ**

**Республиканская конференция, посвящённая к 75-летию профессора  
кафедры биологии и методики её преподавания Хударгана Мавлонова  
(15 апреля 2021 года)**

**Жиззах-2021**

**УДК: 581.5 (09)**

**ББК: 28.58 Г**

**Э-59**

**“XXI асрда Биологиянинг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг аҳамияти” мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари**

Жиззах 2021. – 498 бет.

**Таҳрир хайъати:**, проф. п.ф.д. Ш.С.Шарипов, таҳрир хайъати раиси б.ф.н. доц. Қодиров Ғ., таҳрир хайъати ўринбосари проф., б.ф.д. Раҳмонқулов У. доц., б.ф.д. (PhD) Азимова Д.Э. б.ф.д. (PhD). Авалбоев О.Н. б.ф.д. (PhD). Абдуллаева Н.С. б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т. Усанов У.Н.

**Тўплам редакторлари:** б.ф.д.(PhD)., доц. Азимова Д.Э., б.ф.д.(PhD). Авалбоев О.Н., б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

*Ушбу тўплам Жиззах давлат педагогика институтида 2021 йил 15 апрелда бўлиб ўтган Республика илмий анжумани материалларидан иборат.*

*Уларда флора, систематика ва юксак ўсимликлар географияси, биологикхилма-хилликни ўрганиш ҳамда ноёб, йўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларининг муҳофазаси, ўсимликлар қоплами, ресурсларини ўрганиш, структуравий ботаника, экология, интродукция, сув ва қуруқлик ценозлари ҳайвонларни ўрганиш, паразитлар ва энтомокомплекслари шакллантирувчи, ҳаракатлартирувчи тадқиқотларнинг замонавий муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.*

*Мақолалар тўплами илмий ҳодимлар, қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги мутахасислар, олий ва ўрта махсус ўқув юртлари ўқитувчи, талабалари ҳамда тадқиқотчилар учун мўлжалланган.*

**Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълими вазирлигининг 2021 йил 2 мартдаги 78-Ф-сонли фармойиши асосида нашрга тавсия этилган.**

O'simlik o'ziga xos ko'rkamligi bilan ajralib turganligi tufayli, uni manzara kashf etuvchi o'simlik sifatida ham ekiladi, ayrim turlaridan esa pishiq tolalar ham olinishi mumkin. Zanjabil atir-upa sanoatida ham foydali hom-ashyo sifatida nihoyatda qadrlanadi.

Zanjabil qo'shilgan vositalar tabiiy antioksidant va antiseptik bo'lib, terini silliqlashtiradi va taranglashtiradi. Ajin va pigmentlarni ketkazishga yordam beradi, yog'li terini me'yorlashtiradi. Shuningdek, soch muammolarida foydali xususiyatga ega.

Zanjabil organizmga quvvat berib, foydali moddalar bilan boyitadi va stimullaydi, bakteriyalarni zararsizlantiradi. Zanjabil ildizi tana harorati oshganda isitmani tushiradi. Shuningdek, qizdiruvchi, terlatuvchi, balg'am ko'chiruvchi xususiyatiga ham ega.

Zanjabil choy xotirani mustahkamlaydi. Bu tabiiy choyni tayyorlash juda oson, buning uchun zarur mahsulotlarni topish ham qulay. Buning uchun: 1 bo'lak zanjabil ildizi (2 sm atrofida), 1 bo'lak dolchin, yarim ta limon mevasi, 1 stakan suv (250 ml) kerak bo'ladi.

Avval zanjabil ildizini yaxshilab yuvib, sochiq bilan artiladi. 1 stakan suvni qaynatib, unga dolchin va zanjabil solinadi. Past olovda yana 10 minut qaynatiladi. Qaynatmaga yarim ta limon sharbati qo'shiladi. Qaynatmani dokadan o'tkaziladi va bir necha minutdan so'ng tayyor bo'lgan choyni kuniga 2-3 mahal ichiladi.

Zanjabil va dolchin oshqozonni ko'p kasalliklardan himoya qilsa ham, ovqat hazm qilish a'zolarida muammosi bor kishilarga bunday choyni ichish tafsiya etilmaydi, chunki, zanjabil ham, dolchin ham kuchli qo'zg'atuvchi moddalardir. Shuningdek, uni ichish homilador ayollarga, bolalarga, yarali kolit, jigar sirrozi va yuqori tana haroratida va aspirin, varfarin, tiklopidin yoki geparin kabi dori-darmonlar ichib yuruvchi kishilarga tavsiya etilmaydi. Shubha tug'ilgan yoki bunday choyni ichish natijasida ko'ngilsiz reaksiya bergan hollarda, yurak kasalliklari va qon bosimi oshganda davolovchi shifokor bilan maslahatlashing.

Xulosa qilib aytganda, tabiatmizning har bir ne'matlaridan to'g'ri va unumli foydalaishimiz lozim va zarurdir. Biz ulardan o'z me'yorida va to'g'ri foydalansak, inson umrini uzaytirishga, kasalliklarning oldini olishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari". -Toshkent "Fan" nashriyoti. 1982. T. I-IV.
2. M. Nabiyev, E. Jo'rayev, H. Xayrullayev. "Tabiiy davolar". -Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti. 1994.
3. L.X. Yoziyev, N.Z. Arabova. "Dorivor o'simliklar". -Toshkent. 2017.

### **JIZZAX VILOYATIDA UCHRAYDIGAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "QIZIL KITABI" GA KIRITILGAN O'SIMLIKLAR BO'YICHA TAHLIL**

**D.A. Agzamova, O.N. Avalboyev, M.B. Xudayorov**  
**Jizzax davlat pedagogika instituti**

Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy mintaqasida joylashgan. Viloyatning uzunligi sharqdan g'arbga 180 km ni, janubdan shimolga 175 km ni tashkil etadi. Viloyat maydoni 21,1 ming km<sup>3</sup>.

Jizzax viloyatining katta qismi sharqdan g'arbga va qisman shimoli-g'arbga cho'zilgan. Chimqortog' va Molguzar, g'arbdan sharqqa sharqi janubga va janubga tomon cho'zilgan Nurota tizma tog'lari, shimol tomondan Qozog'iston Chordara to'g'onidan viloyatning shimoli g'arbidagi Navoiy viloyati hududiga qadar cho'zilgan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi tashkil etadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan Jizzax viloyatida uchraydigan o'simliklarning ilmiy nomi, o'zbekcha nomi, oilasi, tik mintaqada uchrashi va maqomi haqida ma'lumotlar berilgan (jadval).

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 1984 yilda nashr etilgan sonida 163 ta o'simlik turi kiritilgan bo'lsa, 1998 yildagi nashrida esa 301 ta, 2019 yildagi nashri 314 tani tashkil etmoqda.

## Jadval

### Jizzax viloyatida uchraydigan O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklar

№	Ilmiy nomi	O'zbekcha nomi	Oilasi	O'sish joylari	Maqomi
1.	<i>Aconitum talassicum</i> Popov	Oq parpi	<i>Ranunculaceae</i>	Tog'	3
2.	<i>Astragalus knorringianus</i> Boriss	Knorring astragali	<i>Ranunculaceae</i>	Tog'	2
3.	<i>Astragalus leptophysus</i> Vved	Pufak astragal	<i>Fabaceae</i>	Yaylov	2
4.	<i>Astragalus belolipovii</i> Kamelin ex F.O.Khass. et N.Sulejm.	Belolipov astragali	<i>Fabaceae</i>	Tog'	1
5.	<i>Cicer grande</i> (Popov) Korotkova	Yirik no'xat	<i>Fabaceae</i>	Tog'	1
6.	<i>Oxytropis pseudorosea</i> Filim	Nimrang pushti oksitropis	<i>Fabaceae</i>	Adir	2
7.	<i>Lappula muratovica</i> Nabiev et Zakirov	Nurota moviyguli	<i>Boraginaceae</i>	Adir	2
8.	<i>Ferula sumbul</i> (Kauffm.) Hook.f.	Sumbul kovrak	<i>Apiaceae</i>	Tog'	3
9.	<i>Ferula fedtschenkoana</i> Koso-Pol	Fedchenko kovragi	<i>Apiaceae</i>	Tog'	2
10.	<i>Ferula helenae</i> Rakhm, et Melibayev	Yelena kovragi	<i>Apiaceae</i>	Tog'	2
11.	<i>Seseli turbinatum</i> Korovin	Pildiroq qo'shshox	<i>Apiaceae</i>	Adir	1

12.	<i>Pseudoclausia sarawachanica</i> (Regel et Schmalh) Botsch	Zarafshon soxta Klausiyasi	<i>Brassicaceae</i>	Adir	2
13.	<i>Lepidium olgae</i> (R.M.Vinogr) Al- Sherbaz et Mumm	Olga lepidiumu	<i>Brassicaceae</i>	Tog'	2
14.	<i>Acantholimon muratovicum</i> Zakirov	Nurota kirpio'ti	<i>Limoniaceae</i>	Tog'	2
15.	<i>Tulipa micheliana</i> T.M.Hoog	Mixel lolasi, Dilband lola	<i>Liliaceae</i>	Adir	3
16.	<i>Tulipa lehmanniana</i> Mercklin ex Bunge	Leman lolasi, jovqosin lola	<i>Liliaceae</i>	Cho'l	3
17.	<i>Tulipa korolkowii</i> Regel	Korolkov lolasi	<i>Liliaceae</i>	Cho'l	3
18.	<i>Tulipa affinis</i> Botschantz	Qardosh lola, Nurota lolasi	<i>Liliaceae</i>	Adir	3
19.	<i>Tulipa dasystemon</i> (Regel) Regel	Sarg'ish lola	<i>Liliaceae</i>	Yaylov	3
20.	<i>Colchicum kesselringii</i> Regel	Kesselring savrinjoni	<i>Colchicaceae</i>	Tog'	3
21.	<i>Pseudosedum campanuliflorum</i> Boriss	Qo'ng'iroq- gulli soxtasemi-zak	<i>Crassulaceae</i>	Adir	2
22.	<i>Vitis vinifera</i> L	Yovvoyi tok (uzum)	<i>Vitaceae</i>	Adir	3
23.	<i>Allochrysa dursophiloides</i> (Regel) Schischk	Qachimsi-mon yetmak (Bex)	<i>Caryophyllaceae</i>	Adir	3
24.	<i>Silene paradena</i> Bondarenko et Vved	Bezchali zo'rcha	<i>Caryophyllaceae</i>	Tog'	2
25.	<i>Helichrysum muratovicum</i> Krasch	Nurota o'lmaso'ti	<i>Asteraceae</i>	Tog'	2
26.	<i>Jurinea Zakirovii</i> Iljin	Zakirov yurineyasi	<i>Asteraceae</i>	Tog'	1
27.	<i>Serratula lancifolia</i> Zakirov	Nashtarsi-mon serratula	<i>Asteraceae</i>		2
28.	<i>Allium isakulii</i> R.M.Fritsch et F.O.Khass	Isoqul piyoz	<i>Amaryllidaceae</i>	Adir	1

29.	<i>Lonicera paradoxa</i> Pojark	G'alati uchqat	<i>Caprifoliaceae</i>	Tog'	1
30.	<i>Eremurus robustus</i> Regel	Nor shirach (Xulka bola)	<i>Xanthorrhoeaceae</i>	Tog'	3
31.	<i>Eremurus muratavicus</i> A.P.Khokhr	Nurota shirachi	<i>Xanthorrhoeaceae</i>	Tog'	1
32.	<i>Eremurus lactiflorus</i> O.Fedtsch	Oqgulli shirach	<i>Xanthorrhoeaceae</i>	Tog'	2
33.	<i>Eremurus chloranthus</i> Popov	Yashil gulli shirach	<i>Xanthorrhoeaceae</i>	Tog'	0
34.	<i>Lagochilus olgae</i> Kamelin	Olga bozulbangi	<i>Lamiaceae</i>	Adir	2
35.	<i>Lagochilus proskorjakovii</i> Ikramov	Proskoryakov bozulbangi	<i>Lamiaceae</i>	Tog'	1
36.	<i>Lagochilus inebrians</i> Bunge	Sarxush bozulbang	<i>Lamiaceae</i>	Adir	3
37.	<i>Salvia submutica</i> Botsch. Et Vved	To'mtoq marmarak	<i>Lamiaceae</i>	Tog'	2
38.	<i>Phlomis anisochila</i> (Pazij et Vved) Salmaki	Uchpoyali oqpusha	<i>Lamiaceae</i>	Adir	2
39.	<i>Phlomis nubilans</i> Zakirov	Ko'rimsiz qo'ziquloq	<i>Lamiaceae</i>	Adir	3
40.	<i>Bryonia melanocarpa</i> Nabiev	Qora sirttan	<i>Cucurbitaceae</i>	Cho'l	3
41.	<i>Anura pallidivirens</i> (Kult.) Tscherneva	Yashil Anura	<i>Asteraceae</i>	Adir	2
42.	<i>Cousinia dshisakensis</i> Kult.	Jizzax karragi	<i>Asteraceae</i>	Adir	3
43.	<i>Cousinia haesitabunda</i> Juz.	Shubhali karrak	<i>Asteraceae</i>	Adir	2
44.	<i>Lepidolopha muratavica</i> Krasch.	Nurota Lepidolofasi	<i>Asteraceae</i>	Adir	3

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobining 2019 yilda nashr etilgan sonida 314 ta o'simlik turlari kiritilgan bo'lib, shularning 44 turi Jizzax viloyatida uchraydi. Oilalar bo'yicha, ayiqtovondoshlar-2, loladoshlar-5, chuchmomodoshlar-7, burchoqdoshlar-4, sarvinjondoshlar-1, shilvidoshlar-1, g'avzabondoshlar-1, semizdoshlar-1, shirachdoshlar-1, ziradoshlar-4, uzumdoshlar-1, yalpizdoshlar-6, karamdoshlar-2, chinniguldoshlar-2, qovoqdoshlar-1, karmakdoshlar-1, qoqio'tdoshlar-7 turlar uchraydi.

Jizzax viloyatida uchraydigan o'simliklarning 0 - yo'qolgan yoki yo'qolgan bo'lishi mumkin bo'lgan turlarga 1 tur, 1 - yo'qolish arafasida turgan turlarga 8 tur, 2 – kamyob turlarga 19 tur, 3 – son jihatdan kamayib borayotgan turlarga 16 tur kiritilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек Совет Энциклопедияси. Т. 8. -Тошкент, 1976. 195-196 б.
2. Флора Узбекистана. Т.IV. Издательства АН УзССР. –Ташкент. 1959. 503с.
3. 12. Красная книга Узбекской ССР. Растения. -Ташкент. ФАН. Т. 2. 2009. 150 с.

### **FERULA L. TURKUMI TURLARI URUG'INING UNUVCHANLIGI**

**O.N. Avalbaev, H.A. Yunusov, Sh.O. Doniyorova**  
**Jizzax davlat pedagogika instituti**

Dunyoda biologik xilma-xillikni saqlash, o'simliklar olamini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish global muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, o'simlik turlarining bioekologik xususiyatlarini o'rganish, introduksiya ishlarini olib borish, muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish, noyob va kamayib borayotgan turlarni aniqlash va ularni saqlab qolishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda cho'llarning o'zlashtirish munosabati hamda chorva mollarning hududda intensiv boqilishi oqibatida ba'zi - *F. varia* (Schrenk) Trautv., *F. schtschurowskiana* Regel et Schmalh., *F. helenae* Rakhmankulov et Melibaev va *F. foetida* (Bunge) Regel turlarining tabiiy maydonlari keskin kamayib bormoqda. Shuning uchun istiqbolli *Ferula L.* turlarini urug'idan ekib, ko'paytirish yo'llarini izlash va dastlabki introduksiya ishlari bilan shug'ullanish lozim. *Ferula L.* turkumi turlarining bioekologik xususiyatlarini ontogenezda o'rganish, urug'idan ekib ko'paytirish hamda amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 martdagi PQ-36/17-sonli "Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish hamda eksport qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Yer yuzida *Ferula L.* turkumining 180-185 turi, MDH mamlakatlarida 106 turi, Markaziy Osiyoda 105 turi, O'zbekistonda 48 turi, G'arbiy Tiyonshonda 50 dan ortiq, Pomir-Oloy tizmasida 60 yaqin turi, G'arbiy Pomir-Oloy tizmasida 33 turi uchraydi [1,2].

Istiqbolli *Ferula L.* turlarini ko'paytirish uchun uning etilgan urug'lari quyidagi hududlardan yig'ib olindi: *F. penninervis* Regel et Schmalh.– Molguzar tog'ining shimolidan, Pishag'ar qishlog'ining yuqorisidan, 39°49'45.09"S68° 1'44.92"V (20.VII.2010), *F. ovina* (Boiss.) Boiss., *F. dshizakensis* Korovin, *F. angrenii* Korovin turlari–Molguzar tog'ining shimoli g'arbiy qismi – Amir Temur darvozasi atrofidan 40° 4'13.10"S67°41'55.35"V (15.VII.2010), *F. kuhistanica* Korovin–Turkiston tog' tizmasi, Baxmal qishlog'i atrofidan 39°38'57.29"S68° 1'5.50"V (1.VIII.2010), *F. kokanica* Regel et Schmalh., *F. samarkandica* Korovin turlari–Turkiston tog' tizmasi, Zomin suv havzasi, Zomin milliy tabiat bog'i hududidan 39°38'57.47"S68°29'24.43"V (10.VII.2010), *F. helenae* Rakhmankulov et Melibaev-Nurota tog'i, Baliqli qoldiq tog'idan 40°21'29.04"S67°29'47.81"V (15.VII.2010),



	ШАКЛЛАНТИРИШ.....	137
50	Karimov U.U., Karimova G.Yi. THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACHIEVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS.....	139
51	Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G'. BIOLOGIK TA'LIM JARAYONINING YAXLITLILIGI, O'QITISH PRINSIPLARI VA QONUNIYATLARI.....	143
52	Норматова Д.Э. ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ.....	146
53	Салимова Ҳ.Х., Толибова Г.Ҳ. ТУПРОҚШУНОСЛИК ФАНИДАН “ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ.....	150
54	Mavlonova S.X., Maxammadiyev D.M., Aberqulov E.A., Xolmo'minova Ch.I. TABIATSHUNOSLIK DARSLARINING MAZMUNI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI.....	156
55	Мирзоева М.А., Ҳайитбоева М.Б. СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛУ.....	159
56	Qarshiboyeva N.H., Xolmirzayeva A.A. BOTANIKA DARSIDA QOQIO`TDOSHLAR (ASTERACEAE) OILASIGA MANSUB DORIVOR O`SIMLIKLARNI O`QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	163
57	Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G'. BIOLOGIK TA'LIMNING ROLI.....	167
58	Қозақова С. “БОБУРНОМА” СЮЖЕТИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	171
59	Almamatov J.M., Jumaboeva D.B. KATTA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARGA YIL FASLLARI HAQIDA TUSHUNCHA BERISH.....	176
60	Tojiboyev Sh.J., Sheraliyev O.X. O`SIMLIKLARDAN IBRAT OLING.....	180
61	С.М. Назарова, И.Р. Баракаев, М.Р. Халилова. “ТУПРОҚНИНГ АГРОФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	185
62	M.U. Eshonqulova, N. Hamraqulova. MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSOIN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.....	190
63	Р. Уразова. ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРИРОДОВЕДЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.....	192
	<b>3-SHO'BA. BIOXILMAXILLIK, O'SIMLIK VA HAYVONOT GENOFONDINI SAQLASH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH</b>	
64	Г.Ў.Қодиров, Д.Э. Азимова, МОЛГУЗАР ТИЗМАСИ ФЛОРАСИНИНГ И.Г. СЕРЕБРЯКОВ (1962) ТАСНИФИ БЎЙИЧА ҲАЁТИЙ ШАКЛЛАРИ.....	195
65	J. To'lishev. TOLALI ZIG'IRNING BIOLOGIYASI.....	197
66	D.E. Azimova, M.X. Sharipova, M.S. Sayfiddinov. O'ZBEKISTON QO'RIQXONALARIDA TARQALGAN ROSACEAE OILASINING TURKUM TURLARI.....	199
67	L.S. Ortiqova, E.A. Aberqulov, K. Abroroba. EFEMER VA EFEMEROID	